

**MILLIY VALYUTA BOZORINI TARTIBGA SOLISHNI TAKOMILLASHTIRISH
YO'LLARI**

Yigitaliyev Alibek Lazizbek o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Bank va Moliya Akademiyasi.

Iqtisodiyotni monetar tartibga solish. Magistratura tinglovchisi

Annotatsiya: Valyuta - davlatning pul birligi bo'lib, pul tizimining asosiy elementi hisoblanadi. U muomaladagi qonuniy to'lov vositasi bo'lib, tovarlar qiymatining o'lchovi, hisoblash va to'lash vositasi bo'lib xizmat qiladi. Har bir mamlakat o'z milliy valyutasiga ega. Ayni paytda yer yuzida 250 dan ziyod davlat bor. Ulardan 195 tasi mustaqil mamlakatlar, qolganlari esa noaniq yoki maxsus maqomga ega. Dunyoda 160 ga yaqin valyuta mavjud.

Kalit so'zlar: Valyuta, Ayirboshlash, onlayn-do'kon, Emitent, konvertatsiya.

Valyuta konversiyasi - bir mamlakat valyutasini boshqa davlat valyutasiga ayirboshlashdir. Ushbu ayirboshlash boshqa mamlakatlarga sayohat qilish, xorijiy firma va kompaniyalar bilan savdo-sotiq qilish va xorijiy onlayn-do'konlardan tovarlar sotib olish imkonini beradi.

Valyuta ayirboshlash to'lovlarni jo'natuvchi va qabul qiluvchi banklarning kursida amalga oshiriladi. Ayirboshlash uchun komissiya olinishi mumkin. Chet el valyutasida to'lovni amalga oshirishdan oldin, ayirboshlash kursi hamda komission to'lovlarga aniqlik kiriting.

Emitentga qarab (valyutani muomalaga chiqaruvchi):

Milliy valyuta - muayyan davlatning valyutasidir (so'm, dollar, yevro, rubl' va boshqalar). Mazkur davlat hududida foydalanish maqsadida Markaziy bank tomonidan muomalaga chiqariladi;

Xorijiy valyuta – xorijiy davlatlarda muomalada bo'lgan va qonuniy to'lov vositasi hisoblangan valyutalar, shuningdek, kreditlash va to'lovlarni amalga oshirish vositalari (banknotalar, g'azna biletlari, tangalar, cheklar, veksellar);

Jamoaviy valyuta - bu ma'lum bir davlatlar guruhi va xalqaro tashkilotlar tomonidan moliyaviy amaliyotlarni amalga oshirish uchun foydalaniladigan valyutadir. Masalan, 1999 yilning 1 yanvarida Yevropa Ittifoqi (EI) davlatlari yagona valyuta – Yevroni naqdsiz shaklda, 2002 yilning 1 yanvaridan esa banknotalar va tangalar ko'rinishida muomalaga kirtdilar.

Qanday turdag'i konvertatsiya mavjud:

Erkin konvertatsiya bo'ladigan – boshqa valyutalarga almashtirish jarayonida hech qanday cheklolvar mavjud bo'lмаган valyuta. Bu kabi valyutalarga egalik qiluvchi davlatlar ushbu valyutalar bilan amaliyotlarni bajarishga hech qanday

to'siqlar qo'ymaydi. Bunday valyutalarga AQSh dollari, yevro, Shveysariya franki, Britaniya funti, Yaponiya yenasi va boshqalar kiradi.

Konvertatsiya bo'lmaydigan valyuta - mamlakat hukumati tomonidan valyutalarni sotish va sotib olishga yoki boshqa operatsiyalarni amalga oshirishga cheklovlar o'rnatalgan bo'ladi. Bu Shimoliy Koreya voni va Kuba pesolaridir. Bunday pullar muomalasiga faqat mamlakat ichida ruxsat etiladi.

Qisman konvertatsiya bo'ladigan valyuta – bular emitent mamlakatdan tashqarida muomalasi cheklangan milliy banknotalardir. Masalan, O'zbekistonda so'm qonuniy to'lov vositasi hisoblanadi. Mamlakat tashqarisida esa so'mni ayrboshlash bo'yicha cheklovlar mavjud bo'lib, faqat ayrim xorijiy valyutalarga ayrboshlanishi mumkin.

Masalan, bir kishi Malayziyaga safar qilmoqchi va uning Malayziya ringitiga almashtirmoqchi bo'lgan ma'lum miqdordagi o'zbek so'mi bor, lekin Malayziyaning valyutasi kamyob valyuta bo'lib, uni banklarda sotib olish imkoniyati yo'q. Buning uchun o'zbek so'mini, masalan, AQSh dollariga almashtirish kerak. Malayziyaga kelgach, erkin almashtiriladigan valyuta bo'lgan dollarlarni Malayziya ringitiga bemalol almashtirish mumkin. Bu holat qisman konvertatsiya qilinadigan valyutalarni ayrboshlashga misol bo'la oladi.

Valyuta kotirovkasi nima?

Kotirovka - bu xorijiy valyutaning milliy valyutadagi narxi. Bir valyuta birligining boshqasiga nisbatan kursi bevosita aniqlanmagan taqdirda, talab va taklifa muvofiq birjada kotirovka kross-kurs orqali aniqlanadi.

Kross-kurs nima?

Kross-kurs – bu ikki valyuta qiymatining o'zaro nisbati bo'lib, ularning uchinchi valyutaga nisbatan kurslari orqali aniqlanadi.

Amalda, kross-kursni hisoblash quyidagicha bo'ladi. Faraz qilaylik, Xorvatiya kunasining o'zbek so'miga nisbatan kursini bilmoqchimiz. O'zbekiston banki kuna qiymatini belgilamaydi, shuning uchun siz kross-kurstdan foydalanishingiz kerak. Xorvatiya milliy banki kunaning dollarga nisbatan kursini (USD/HRK), O'zbekiston banki esa o'z navbatida so'mning dollarga nisbatan kursini (USD/UZS) o'rnatadi. Ushbu kurslarni bir biriga (USD/UZS ni USD/HRK) bo'lish orqali, kunaning so'mga nisbatan kursini aniqlash mumkin. Masalan, 18.03.2020 yil holatiga dollarning so'mga nisbatan kursi 9520.34 so'm (1 AQSh dollari – 9520.34 so'm) hamda dollarning kunaga nisbatan kursi 6.97 (1 AQSh dollari - 6.97 kuna) bo'lgan. Shu kuni kunaning sumga nisbatan qiymati quyidagicha bo'lgan:

$$(9520,34 \text{ USD/UZS}) / (6,97 \text{ USD/HRK}) = 1365,90 \text{ HRK/UZS}$$

Bretton-Vuds tizimidan oldin (valyutalar kurslarini AQSh dollariga bog'lash), "Oltin standart" tizimidan foydalanilgan (davlatlar tomonidan milliy valyutalarni rasmiy ravishda oltinga bog'lashga asoslangan xalqaro valyuta tizimi bo'lib, bunda Markaziy banklar milliy valyutalarni oltinga ayrboshlash orqali sotib olish va sotish

majburiyatini olgan), tarixda ikki marotaba amal qilgan (1880-1914 va 1925-1931 gacha).

1971-1978 yillarda Bretton-Wuds tizimi o‘rnini erkin valyuta savdosiga (erkin valyutalar konvertatsiyasi) asoslangan Yamayka valyuta tizimi egalladi.

Valyuta kodi – bu dunyodagi valyutalar uchun umumiy qabul qilingan belgi bo‘lib, u uchta harfdan iborat bo‘ladi. Bu valyutalarni matnlar va elektron tabloidlarda qisqa va aniq aks ettirishni osonlashtiradi.

Dunyodagi eng qimmat valyuta:

Quveyt dinari

Valyuta kodi - KWD

Quvayt - katta boylikka ega bo‘lgan kichik mamlakat. Valyutasining yuqori qiymati neft mahsulotlarining jahon bozoriga sezilarli darajada eksport qilinishi bilan izohlanadi.

Dunyoda eng ko‘p ishlatalidigan valyuta:

AQSh dollari

Valyuta kodi – USD

Amerikaning jahon bozorida yetakchiligi tufayli uning valyutasi "jahon zaxira valyutasi" unvoniga erishdi. Boshqa so‘z bilan aytganda, dunyoning istalgan burchagida AQSh dollarini ishlatsangiz bo‘ladi va uni qabul qilishadi.

Dunyodagi eng qadimgi va hali ham ishlatalidigan valyuta:

Funt sterling

Pul islohotlari - milliy valyutani mustahkamlash, pul birligini barqarorlashtirish va pul muomalasini tartibga solish maqsadida davlat tomonidan mamlakat pul tizimini to‘liq yoki qisman qayta tashkil etish. Pul islohotlari qog‘oz pul belgilarining hammasi yoki bir qismi qadrsizlanganda va ularning hajmi ko‘payib, yangisi (qog‘oz yoki metall) bilan almashtirish lozim bo‘lganda, pulning oltin qiymati yoki valyuta kursi o‘zgarganda, pul tizimiga o‘zgartish kiritish zarur bo‘lganda o‘tkaziladi. Pul islohotlari mamlakatdagi iqtisodiy holatga, pulning qadr-sizlanish darajasiga va davlatning siyosatiga bog‘liq holda turli usullar-da: ortiqcha qog‘oz pullarni yo‘q qilish yo‘li bilan pul hajmini kamaytirish (deflyasiya); eski pul belgilarini yo‘q qilib, yangi qog‘oz pul belgilarini zarur miqdorda chikarish (nullifikatsiya); eski pul belgilarini yirikroq yangi pul belgilariga almashtirish (denominatsiya); pul birligi yoki qog‘oz pul birligi kursining metall qiymati va chet el valyutasiga nisbatan kursini pasaytirish (devalvatsiya); pul birligidagi metall qiymati yoki qog‘oz pul kursini tashki davlatlar valyutasiga nisbatan oshirish (revalvatsiya) va boshqa shakllarda amalga oshiriladi.

Sobiq Ittifoq (Rossiya)da 1922—23 yillarda eski 1 mln. rubl yangi 1 rublga, Germaniyada Birinchi jahon urushi va undan so‘nggi davrlarda pulning haddan tashqari qadrsizlanishi natijasida 1924-yilgi Pul islohotlari davrida yangi 1 marka eski 1 trln. markaga, Gretsiyada 1944-yil noyabrda 50 mlrd. draxma yangi 1 draxmaga almashtirilgan edi. Ikkinchi jahon urushi yakunlanishi arafasida va undan keyin bir

qator xorijiy davlatlarda Pul islohotlari (Belgiya — 1944-yil, Fransiya, Daniya, Gollandiya va Norvegiya — 1945-yil, Yaponiya — 1946-yil, Avstriya — 1947-yil) amalga oshirildi.

Hozirgi Markaziy Osiyo hududlarida muxim Pul islohotlari Amir Temur hukmronlik qilgan davrdan boshlangan. Uning tashabbusi bilan o'sha davrgacha muomalada bo'lgan mayda mis tangalar o'rniga sifat va hajm jihatdan bir necha marta ortiq bo'lgan, yirik qiymatga ega oltin va kumush tangalar zARB etila boshlagan. Amir Temur tasarrufida bir necha zarbxonalar bo'lganligi va ularda zARB etilgan tangalar Yevropada ham mashhur bo'lganligi haqida ko'p ma'lumotlar bor. Birgina G'arbiy Eron va Ozarbayjonda Amir Temurning nomi bitilgan 120 turdan ortiq oltin va kumush tangalar muomalaga kiritilgan. Mirzo Ulug'bek tomonidan 1428-yil amalga oshirilgan Pul islohotlarida ilgari zARB etilgan mis tangalarning muomalada bo'lishi taqiqlangan. Bir qator shaharlarda — Buxoro, Samarqand, Toshkent, Shohruxiya, Andijon, Qarshi va Ter-mizda yangi tangalar zARB etila boshlagan. Eski tangalarni yangi tangalarga almashtirish tugallangandan keyin, fakat Buxorodagi zarbxona faoliyati saklab qolinib, qolganlari yopilgan.

Shayboniylar davrida ham tangalar zARB kilishda yangilik kiritilgan. Ol-dingi xukmdorlar tomonidan zARB etilgan tangalardagi yozuvlar ustiga yangi tamg'alar zARB qilinib, muomalaga chiqarilgan. Bu davrda, asosan, dinor nomi bilan yuritilgan juda ko'p miqdordagi mis tangalar va vazni 3 g bo'lgan kumush tangalar muomalada bo'lgan.

19-asrning boshlaridan Buxoro amirligida vazni 4,5 g lik "tillo" nomi (oltin) bilan tangalar zARB etilgan. Kumushdan ishlangan tanga deb ataluvchi pul birliklari 1920-yilga qadar muomalada yurgan. Buxoro amirligida 1918-yildan boshlab muomalaga nominali 20, 60, 100, 200, 300, 500, 1000, 2000, 3000, 5000 va 10000 tangalik qog'oz pullar chiqarilgan. 1921-yilda Buxoro Xalq banki muomalaga yangi, nominali rublda ko'rsatilgan qog'oz pullarni chiqara boshladi. Bu pullar 3000, 10000 va 20000 rubl nominaliga ega bo'lgan. 1922-yilda Buxoro Xalq banki tomonidan denominatsiya amalga oshirilib, pulning nominali yuzlab marta kamay-tirilgan va 1, 5, 10, 25, 100 rubllik yangi pullar muomalaga chiqarildi. Ammo ko'p o'tmasdan, kuchli inflyasiya natijasida past nominaldagi pul belgilari bozor ehtiyojlarini qondira olmadidi va 1000, 2500, 5000 rubllik pullar bosib chiqarildi. 1920—21 yillarda Xorazm Sovet Xalq Respubli-kasi (XSXR) tomonidan muomalaga 250, 500, 750, 1000, 2000, 5000 va 10000 rubl nominalida ipakdan qo'lda to'qilgan maxsus pul belgilari chikarilgan. Ushbu pullar XSXR tugatilganga qadar, ya'ni 1924-yilgacha muomalada bo'lgan. Yuqori inflyasiya natijasida 1922 — 23 yillarda XSXR tomonidan denominatsiya amalga oshirilib, eski pullarning ustiga ularning yangi no-minalini ko'rsatuvchi tamgalar bosilgan. 1921—22 va undan keyingi yillarda Pul islohotlarini o'tkazishga qaratilgan qator tadbirlar Turkiston ASSRda amalga oshirildi. 1923—24 yillarda Buxoro va Xorazm Xalq Respublikalarining pul belgilari RSFSR pul belgilari (rubl chervon) bilan almashtiriddi.

Fuqarolar urushi davrida Turkiston frontlar halqasi ichida qolganda Toshkentda Turkiston ASSRning puli — turkbonlar chiqarilgan. Keyinchalik 1921-yil 1-yanvardan boshlab Turkistonda 3 oy davomida Pul islohotlari o'tkazilib, turkbon RSFSR pul birligiga 10:1 nisbatda almashtirildi. 1947-yilda sobiqSSSRda Pul islohotlari o'tkazildi, mahsulotlarni taqsimlashda kartochka tizimi tugatildi va davlat kooperativ chakana savdosi nar-xida yagona tartib o'rnatildi. Muomaladagi hamma pul belgilari 10:1 nisbatda yangi pul belgilariga almashtirildi. 1950-yilga kelib oltin tovar za-xirasining ko'payishi, chet el valyutasiga nisbatan pul kursining oshishi, narxlar masshtabi o'zgarishi 1961-yilda muomaladagi pul belgilarini 10:1 nisbatda yangi pul belgilariga almashtirilishiga olib keldi.

O'zbekiston Davlat mustaqilligiga erishgach, Rossiya o'z milliy valyutasini chiqargunga qadar boshqa sobiq It-tifoq respublikalari singari vaqtincha rubl zonasida qoldi va mamlakatda amalda bo'lgan iqtisodiy shart-sharoitlarni hisobga olib, o'z milliy valyutasini muomalaga kiritishni ikki bosqichda amalga oshirdi. Bi-rinch bosqich: 1993-yilning 15-noyabrdan ish haqi, pensiya, stipendiya, nafaqa va aholi daromadlarining o'z vaqtida to'lanishini, respublika ichki iste'mol bozorini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi hududida to'lov vositasi sifatida 1961—92 yillardagi rubl banknotlari va Rossiya bankining 1993-yildagi rubli bilan parallel ravishda 1:1 nisbatda oraliq valyuta sifatida "so'mkupon" muomalaga kiritildi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki muomalaga qiymati 1, 3, 5, 10, 25, 50, 100, 200, 500, 1000, 5000, 10000 so'mkupon qog'oz pullarni chiqardi. Ikkinci bosqich: 1994-yil 1-iyulidan boshlab O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasi so'm 1 so'm = 1000 so'mkupon nisbati bilan muomalaga kiritildi. Markaziy bank muomalaga qiymati 1, 3, 5, 10, 25, 50, 100 so'm bo'lgan bank qog'oz pullari (banknotlar) va 1, 3, 5, 10, 20, 50 tiyin bo'lgan metall tangalar chiqardi.

O'zbekiston Respublikasi o'z milliy valyutasini muomalaga kiritishi, ikki bosqichli bank tizimi va musta-qil pul tizimi tashkil etilishi pul-kredit siyosatinp erkin yuritish im-konini berdi. Hisobkitoblarni yengillashtirish maqsadida 1997-yildan boshlab muomalaga 200 so'mlik, 1999-yildan 500 so'mlik va 2001-yildan 1000 so'mlik bank qog'oz pullari (banknotlar) muomalaga chiqarildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Xodiayev B.Yu., Bekmurodov A.Sh., G'afurov U.V. va boshqalar O'zbekiston iqtisodiyoti mustaqillik yillarida. T.: TDIU, 2007.
2. Bekmurodov A.Sh., G'afurov U.V. O'zbekistonda iqtisodiyotni liberallashtirish va modernizastiyalash: natijalar va ustuvor yo'nalishlar. O'quv qo'llanma. T.: TDIU, 2007.
3. Shodmonov Sh., G'afurov U. Iqtisodiyot nazariyasi. Ma'ruzalar matni. - T.: TDIU, 2009.
4. Shodmonov Sh, Minovarova G va Xalilov M. "Iqtisodiyot nazariyasi" fani bo'yicha o'quv uslubiy majmuasi.

5. Shodmonov Sh va Minovarova G."Iqtisodiyot nazariyasi" fani bo'yicha o'quv uslubiy ta'lim texnologiyasi. "Iqtisodiy ta'limdagi o'qitish texnologiyasi" seriyasidan. T.: TDIU, 2007 , 323 b.
6. Shodmonov Sh., Alimov R., Jo'raev T. Iqtisodiyot nazariyasi. -T.: Moliya. 2002.
7. Shodmonov Sh.Sh., G'afurov U.V. Iqtisodiyot nazariyasi (darslik). - T., «Media» nashriyoti, 2013. - 794 b.
8. O'Imasov A., Vahobov A.V. Iqtisodiyot nazariyasi: Darslik. - T.: «Sharq» nashriyot-matbaa akstiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2006. - 480 b.